

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.A.Saipova	
Kompozitsion bog'lanishli nutqni shakllantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar	5
A.T.Nazarov	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini sport turizmiga oid bilimlarida irodaviy sifatlar	9
E.T.Umarov	
Falsafa ta'limi asosida bo'lajak pedagoglarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik jihatlari	12
M.A.G'ofurova	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligi	16
M.M.Mo'minova, V.T.Jo'rayev, M.M.Turdimatov	
Bo'lajak pedagoglarning axborot xavfsizligi kompetensiyasini baholash mezonlari va metodlari	21
L.S.Isroilova	
Talabalarni dasturlashga oid mustaqil ta'limini tashkil etishda virtual muhitlarning amaliy samaradorligi	27
G.T.Hojikarimova	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini shakllantirishda mustaqil ta'limni tashkil etish	31
A.A.Abdumanonov	
Проблемы и решения оценки практических навыков студентов медицинских учебных заведений	36
H.H.Бобожонов, П.Д.Мамутов	
Влияние различных методов силовой тренировки на показатели прыгучести и скорости в волейболе у студентов вузов	40
M.A.Esonmirzayeva	
Bo'lajak pedagoglarda texnologik metakompetentlikni shakllantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar	43
M.A.Esonmirzayeva	
Metakompetensiyalarni samarali boshqarishga yordam beruvchi ko'nikmalar	47
E.E.Tadjibayev	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishning zaruriyati	51
S.A.Maxmudova	
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish	55
M.E.Madaminova	
Talabalarining texnik ijodkorligini rivojlantirish mazmuni va metodik asoslari	59
M.B.Kamoldinov	
Bo'lajak pedagoglarda konfliktologik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy metodik tizimi	63
Z.A.Davlataliyeva	
Talabalarining o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga doir faoliyatini tashkil etish usullari	67
F.A.Hamdamiyeva	
Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash modeli	71
B.A.G'ofurova	
Oliy ta'lim jarayonida talabalarda konseptual fikrlashni rivojlantirish metodikasini amaliyotga joriy etish	75
N.O.Xaydarova	
Tibbiyot oliy ta'lim talabalarining refleksiv madaniyatini rivojlantirish omillari	78
U.I.Obidjanov	
Zoologiya darslarida zamonaviy interaktiv metodlardan foydalanish: samaradorlik va	



UO'K: 378.014.15

FALSAFA TA'LIMI ASOSIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARDA MANTIQIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK JIHATLARI**МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ФИЛОСОФСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ****METHODOLOGICAL ASPECTS OF DEVELOPING LOGICAL THINKING SKILLS AMONG FUTURE TEACHERS BASED ON PHILOSOPHICAL EDUCATION****Umarov Elmurod To'liqinovich** 

Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak pedagoglarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlan-tirishning nazariy-metodologik asoslari, falsafa ta'limi asosida bo'lajak pedagoglarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi, bo'lajak pedagoglarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligi o'rganilgan. Shuningdek, falsafa ta'limi asosida bo'lajak pedagoglarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik jihatlari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассматриваются теоретико-методические основы развития логического мышления будущих учителей, методика развития логического мышления будущих учителей на основе философского образования, эффективность развития логического мышления будущих учителей. Также анализируются методические аспекты развития логического мышления будущих учителей на основе философского образования.

Abstract

The article studies the theoretical and methodological foundations of developing logical thinking skills in future teachers, the methodology for developing logical thinking skills in future teachers based on philosophical education, and the effectiveness of developing logical thinking skills in future teachers. Also, methodological aspects of developing logical thinking skills in future teachers based on philosophical education are analyzed.

Kalit so'zlar: pedagog, nazariy-metodologik asos, kompetentlik, takomillashtirish, texnologik, model, metodik tizim, mantiqiy fikrlash, ko'nikma, tushuncha, hukm, motivatsion-aksiologik, kognitiv, muammoli ta'lim metodlari, interfaol texnologiyalar.

Ключевые слова: педагогическая, теоретико-методологическая основа, компетентность, совершенствование, технологическая, модель, методическая система, логическое мышление, умение, понятие, суждение, мотивационно-аксиологические, когнитивные, проблемные методы обучения, интерактивные технологии.

Key words: pedagogical, theoretical and methodological basis, competence, improvement, technological, model, methodological system, logical thinking, skill, concept, judgment, motivational and axiological, cognitive, problem-based learning methods, interactive technologies.

KIRISH

Falsafa ta'limini to'g'ri tashkillashtirib, ta'lim tizimi bilan uyg'unlashtirilsa hozirgi zamon ta'labiga javob beradigan yaxlit ishni tashkil etish mumkin bo'ladi. Buning uchun uzluksiz dasturlashgan ta'lim tizimini barpo etish lozim. Bo'lajak pedagoglarda mantiqiy tafakkurni shakllantirishda falsafa darslarining ahamiyati salmoqlikdir. Mazkur vazifalarni bajarishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarga katta e'tibor qaratilmoqda, shunday ekan bo'lajak pedagoglarda ijodiy qobiliyatlarni, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda innovatsion usullardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bo'lajak pedagoglarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, falsafa ta'limi asosida bo'lajak pedagoglarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi, bo'lajak pedagoglarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga oid masalalar J.T.Dillon, J.D.Gobert, O.J.Lindberg, A.D.Olofsson, C.F.Conrad, O.V.Alikseyeva,

E.V.Veselovskaya, N.A.Garulya, V.S.Yegorina, N.A.Kolmakova, M.M.Tesheva, A.Abduqodirov, M.X.Baybayeva, M.U.Qo'chqorov, J.S.Iskenderov, Z.T.Nishonova, F.A.Rahmatova, G.A.Nazarova, D.F.To'xtasinov kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ta'lim-tarbiya jarayonini samarali ro'yobga chiqarish ko'p jihatdan o'quv maskani o'qituvchisining pedagogik texnologiya, shu jumladan, kompyuter savodxonligi darajasining qandayligi bilan ham belgilanadi.

Falsafa ta'limi talabadan: 1) ijtimoiy jihatdan moslashish yoki vaziyatni tashkil etish jarayonida faol ijodiy faoliyat ko'rsatish; 2) o'z faoliyatini mustaqil tashkil etishga asoslangan ijodkorlik, ta'lim olish, o'rganish, o'z-o'zini tarbiyalash pedagogik faoliyatning maqsadi sifatida talab etiladi.

Falsafa ta'limida o'qituvchining ta'lim-tarbiyaviy faoliyati bosqichma-bosqich, o'zaro teng imkoniyatlarga ega bo'lgan hamkorlik asosida tashkil etiladi. Talabaga pedagogik yordam ko'rsatish, birgalikda falsafiy qonuniyatni o'zlashtirish ta'lim jarayonida asosiy o'rin egallamoqda. Bunday yondashuv natijasida hamkorlik jarayoni ishtirokchilarining nuqtai nazarlarini yoppasiga o'rganish va tahlil qilishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat shakllanmoqda. Buning natijasida o'qituvchi faoliyatiga bo'lgan talablar o'zgarmoqda. O'quv dasturida ko'rsatilgan bilimlarni talabaga ko'chirish, uning bilimdonligini shakllantirish ko'nikmasi o'rnini ijodiy masalalarni yechish, ko'ptarmoqli ongini shakllantirish, o'z faoliyatini amalga oshirish layoqatini tarkib toptirish ko'nikmasi egallashi lozim. Shunga ko'ra, o'qituvchi ko'p jihatdan fan o'qituvchisi va metodist sifatida namoyon bo'lmasligi, balki yangicha hamkorlikka asoslangan ta'lim tizimining boshqaruvchisi sifatida faoliyat ko'rsatishi kerak. Chunki, bugungi kun talabiga ko'ra o'qituvchi talabalar ongining rivojlanish yo'llarini tahlil qiluvchi subyektdir.

Talabalarda falsafa ta'limida mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun mavjud ma'lumotlarni har tomonlama tahlil qilish zarur. Falsafa fani o'qituvchisi taqdim qilinayotgan o'quv materialini talabalar ongida to'g'ri idrok qilinishi uchun bilish kategoriyasiga murojaat etadi.

Bilish – bu inson tafakkurida obyektiv borliq tavsifining ongdagi ifodasidir. U his-tuyg'ular (boshqa odam ruhiyatidagilarni his qilish)da, fikrlar (fikrlash)da, til (interpretatsiya)da va xatti-harakat (maqsadga erishish bo'yicha harakatlar)da namoyon bo'ladi. Boshqa tomondan bilish jarayoni – bu narsa-hodisalar haqida haqiqiy va ular haqida oddiy bilimlarni o'zlashtirish maqsadini aks ettiradigan inson intellektual faoliyati jarayoni. Shuning uchun jarayonning o'zi insondagi bilimlar va ularning tayanchidan foydalanishni o'zida aks ettiradi. Agar umumiy tarzda qaraydigan bo'lsak, bilish – mazmunida yangisini ishlab chiqish uchun mavjud bilimlardan foydalana olish aks etadigan ma'naviy faoliyat. Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, bilish jarayoni ikki xil bo'ladi:

1) Talabaning hissiy bilishi uning sezgi va tasavvurlarida o'z ifodasini topadi. Talaba sezgi a'zolari vositasida real dunyo bilan o'zaro aloqada bo'ladi. Bilish jarayonida sezgilar bilan birga idrok ham ishtirok etadi. "Sezgilar natijasida obyektiv olamning sub'ektiv obrazi hosil bo'ladi, ana shu sub'ektiv obrazning inson ongida butunicha aks etishi "idrok" deb ataladi.

Tashqi olamdagi narsa va hodisalar inson miya po'stlog'ida sezish va idrok qilish orqali ma'lum bir iz qoldiradi. Oradan ma'lum bir vaqt o'tgach, ana shu izlar faollashadi va biror narsa yoki hodisaning sub'ektiv obrazi sifatida qayta tiklanishi mumkin. Ana shu obyektiv obrazning ma'lum vaqt o'tgandan keyin qayta tiklanishi jarayoni tasavvur deb ataladi. Demak, falsafa qonuniyatlarni o'rganishda tasavvur muhim o'rin egallaydi.

2) Mantiqiy bilish (tushuncha, hukm va xulosa). Har qanday mantiqiy bilish hissiy bilish orqali amalga oshadi, shuning uchun ham har bir o'rganilayotgan fizik obyektidagi narsalar seziladi, abstrakt nuqtai nazardan idrok va tasavvur qilinadi, so'ngra ana shu o'rganilayotgan obyektidagi narsa to'g'risida ma'lum bir fizik tushuncha hosil bo'ladi.

Yuqorida qayd etilganlarini umimlashtirib aytadigan bo'lsak, bilish jarayoni haqiqatni anglash imkoniga ega bo'lgan to'liq va chuqur bilimni aks ettiradi. Talabalarning mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun esa haqiqatni butunicha anglash imkonini beradigan to'liq va chuqur bilimlarni o'zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning o'zida zarur tarkibiy qismlar: bilish obyekti va sub'ekti, bilish metodlari va vositalari, bilim ko'rinishidagi natijasi va uni baholashni o'zida aks ettiradigan bilish inson faoliyatining turi sifatida qaraladigan faoliyatli, munosabatli, qadriyatli yondashuv asosida bilish jarayonining mohiyatini ochib berish zarur. Shu jihatdan

PEDAGOGIKA

olganda, tadqiqotda talabalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun quyidagi me'yoriy-metodik, tashkiliy yo'nalishlarni ajratishga e'tibor qaratish lozim, deb hisoblaymiz:

Me'yoriy-metodik va tashkiliy yo'nalishlar: – pedagogik amaliyotga erkin fikrlash, mantiqiy mushohada yuritish imkoniyatini beruvchi metodik ishlanmalarni tayyorlash; – falsafa ta'limi jarayonida taqdim qilinayotgan o'quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlaridan keng foydalanish, yangi ta'lim-tarbiyaviy materiallarni ijtimoiy-psixologik ekspertizadan o'tkazish; – talabalarda mantiqiy mushohada qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish; – ta'lim muassasalarida analiz, sintez kabi aqliy operatsiyalarni bajarishga mo'ljallangan topshiriqlarning tarbiyaviy tasnifini to'laqonli tahlil qilish, mashvarat o'tkazish odobi va madaniyatini shakllantirish, e'tiqod erkinligi va madaniyatlararo totuvlikni rivojlantirish borasida bahs-munozara, musobaqa o'tkazish dasturini yaratish va joriy etish; – falsafa fanini o'qitadigan o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlashni ta'minlash; – maxsus treninglar ishlab chiqish; mantiqiy kategoriyalarning mohiyatini ifodalovchi kommunikativ vositalarini yaratish va amaliyotga joriy etish; – jamiyatda ijtimoiy ongni shakllantiruvchi va erkin mushohada yuritish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi falsafaga oid qiziqarli adabiyotlar, turkumlarni tayyorlash va chop etish; – talabalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarni ommaviy axborot vositalari orqali yoritib borish va boshqalar.

Bo'lajak pedagoglarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda quyidagilarni ta'minlash muhim hisoblanadi: – mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali intellektuallik salohiyatini oshirish tamoyillarini ijtimoiy amaliyotga joriy etish; – o'quv maskanlarida «Yosh faylasuflar», «Fan va falsafa», «Zakovatli yoshlar» kabi munozara-debat klublarini tashkil qilish; – falsafa sohasidagi yangiliklar bilan talabalarni tanishtirib borish, sifatli masalalarni echa oladiganlar ko'rik tanlovlarini amaliyotga joriy qilish va boshqalar. Bu g'oyalar falsafa o'quv dasturlarida ham o'z aksini topgan. Bulardan ko'rinayaptiki talaba falsafa darslarida mantiqiy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lishi uchun taqdim qilinayotgan o'quv materialini mukammal o'zlashtirishga erishishi lozim.

Fikrimizcha, bo'lajak pedagoglarda mantiqiy tafakkurni oliy pedagogik ta'limda falsafiy bilimlar asosida rivojlantiriladi.

Oliy o'quv yurtlari ta'lim tizimida falsafiy bilimlarni, xususan, Falsafa o'quv fanini o'zlashtirishda talabalarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning o'ziga xos shart-sharoitlari va talablari mavjud.

Falsafa o'quv fanini o'zlashtirish asnosida talabalarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish ta'limning bir qator shakllaridan foydalanilgan holda amalga oshiriladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish jarayoniga Falsafa o'quv fanini o'qitish asnosida tizimli yondashuvning ham o'ziga xos jihatlari mavjud.

Falsafa o'quv fanini o'qitish asnosida bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish yo'llarini aniqlab olish lozim.

Talaba "Falsafa" o'quv fanini o'zlashtirishda quyidagi ko'nikma va malakalarga (o'quv fanini muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan) ega bo'lish kerak:

1) ma'lumot bilan mustaqil ishlash: asosiy holatlarni aniq, muntazam konspekt va chizma shaklida qayd etish; o'quv topshiriq-vazifalarini yechish uchun zarur bo'lgan axborotlarni topish, tanishish, tushunish, tanqidiy baholash, yig'ish va ularni loyiha, esse, hisobot ko'rinishda taqdim etish; qo'yilgan talablar asosida ilmiy matnini (maqola, ma'ruza, tezis) yaratish;

2) taqdim etish malakalari: o'quv topshirig'ini bajarish natijalari haqida so'zlayotib o'zini dadil tutishi, turli ko'rgazmali vositalardan foydalanishi;

3) o'qituvchi va talaba hamkorligi: talabaning o'z nuqtai nazarini himoya qilishi, suhbatga kirisha olishi, savol javoblarni, baxs-munozara qoidalariga rioya etishi, tortishuvlarda o'z qarashlarini asoslay bilish;

4) guruhda o'zaro harakatga tayyorligi va qodirligi – o'quv topshirig'ini hamkorlikda bajarishga, jamoa bo'lib ishlashga, vazifani yechishda jamoaviy muloqot, o'zaro harakat, bir-biriga yordam va o'zaro baholashda namoyon bo'ladigan hamkorlikda ishlash malakalarini egallash;

5) muammoli vaziyatlarda faol ishtirok etish – ta'limiy muammoli vazifalarni tahlil qilish, o'quv topshirig'ini yechishning murakkab yo'llarini topish, g'oyalar yaratish va xulosalarni chiqarish;

6) axborotni yig'ish, qayta ishlash va saqlash borasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana olish.

Ta'lim jarayonida talabalarga isbotlab bo'lingan, aniqlangan va bu bilimlarni hali inson tahlil qilishi va chuqurroq o'rganishi kerak bo'ladi.

"Falsafa" o'quv fanini bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan holda o'qitishda ta'lim texnologiyasi jamiyatning demokratlashuvi sharoitida ta'lim berishning dolzarbligi asoslanadi, o'quv fani bo'yicha ta'lim texnologiyasi tuzilmasi bayon etiladi, ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari, loyihalangan ta'lim berish texnologiyasi qisqacha ta'riflanadi.

XULOSA

"Falsafa" fani asosida talabalarda falsafiy dunyoqarash bilan birga mantiqiy tafakkur, tahliliy fikr yuritish madaniyatini shakllantirish va shu asosida mantiqiy tafakkurini yuksaltirish mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda axborotlar bilan ishlash kompetentligini rivojlantirish ham juda muhim hisoblanadi. Axborot madaniyati talabalarning mantiqiy tafakkurini ham rivojlanishiga asos bo'ladi. Buning uchun esa, oliy pedagogik ta'limda majburiy fan sifatida o'tiladigan "Falsafa" fanini mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirish o'qitish, axborot madaniyatini mantiqiy dalillashga yo'naltirish asosida tashkil qilish juda muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Гребенюк О.С., Гребенюк Т.Б. Основы педагогики индивидуальности. Учебное пособие. - Калининград 2000, с. 44
2. Давлетшин М.Г. Психология мышления. -Т.: Ўқитувчи, 1994
3. Диагностика учебной деятельности и интеллектуального развития детей. / Под. ред. Д.Б.Эльконина и Л.А.Венгера. – М., 1981. -С.37-38
4. Елемесова З.А. Ўқувчиларда индуктив ва дедуктив мушоҳада қилиш кўникмаларини шакллантиришнинг педагогик асослари. Диссертация. –Навоий, 2006
5. Мирзааҳмедов Б. Педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошқариш технологиялари. – Т.: Фан ва технологиялар, 2012. –Б. 28
6. Практикум по развитию саногенного мышления / С.Н.Морозюк, Ю.В.Морозюк. – Москва: МПГУ: Прометей, 2013. – 14 с.